2024 yil 25yanvar
13-П - sonli buyruqga
1 - ilova

"INSON"AJ ST
Bosh direktori
A.A.Abdusattorov
2024 yil 25 yanvar
TASDIQLANGAN

«MENING UYIM» MAXSUS HIMOYA SUG'URTA QILISH BO`YICHA OMMAVIY OFERTASI

Mazkur Ommaviy oferta (quyida matn bo'yicha - Oferta) jismoniy shaxslarning noma'lum doirasi uchun (quyida matn bo'yicha – Sug'urta qildiruvchi) "INSON" AJ STning (quyida matn bo'yicha – Sug'urtalovchi) taklifi hisoblanadi, u quyidagi sug'urta shartlarida, Sug'urtalovchining axborot tizimlari orqali "MENING UYIM" maxsus himoya sug'urta qilish shartnomasini (quyida matn bo'yicha – Sug'urta shartnomasi) tuzishni ko'zda tutadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnomaning tomonlari hisoblanadi.

Mazkur Oferta shartlarini qabul qilish va muayyan sug'urta mukofotini to'lash uning shartlarini aktseptlash va Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchining roziligi hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin, unga Sug'urta polisi beriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarining shartsiz qabul qilinishi (aktseptlanishi) hisoblanadi, bu bilan mazkur Oferta shartlariga, shu jumladan unda bayon etilgan sug'urta shartlariga rozilik ifodalanadi.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilib, Sug'urta qildiruvchi:

- identifikasiya qilish tartibidan o'tadi;
- ixtiyoriy asosda sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlaydi;
- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'zRQ-547-son "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi;
- ushbu Ofertaning barcha shartlari to'liq qabul qilinganligini tasdiqlaydi;
- ushbu oferta buyicha kelishilgan sugurta mukofotini tulashga tulik roziligini tasdiqlaydi.

1. UMUMIY SUG'URTA SHARTLARI

"MENING UYIM" maxsus himoya Sug'urta polisi (matnda keyingi o'rinlarda - Sug'urta polisi deb ataladi) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Umumiy sug'urta tarmog'ining 8 va 9-klasslariga muvofiq "INSON" AJ ST tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uy-joyni sug'urtalashning umumiy shartlarini belgilaydi.

Ushbu Sug'urta polisiga asosan "INSON" AJ ST Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta polisi beradi va sug'urta hodisasi ro'y bergan taqdirda sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) to'laydi.

Ushbu Ofertada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Sug'urtalovchi - Ustav va O'zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organi tomonidan berilgan 2022 yil 18 martdagi SF №00058-sonli Lisenziyasi faoliyat ko'rsatuvchi INSON" Aktsiyadorlik Jamiyati Sug'urta Tashkiloti tushuniladi.

Sug'urta qildiruvchi - sug'urta mukofotini to'lagan va Sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatlariga kirishgan, muomala layoqatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi (matn davomida - AAT) – Butunjaxon Internet axborot-kommunikasiya tarmogida joylashgan Sug'urtalovchining ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan axborot tizimi dasturi.

Sug'urta puli - pul mablag'lari miqdori bo'lib, Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lab berish majburiyati ushbu summa bilan chegaralanadi va Sug'urtalovchi sug'urta tovonini sug'urta pulidan oshmagan miqdorda to'lab berish majburiyatini oladi.

Sug'urta polisi – Sug'urtalovchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan va Sug'urta qildiruvchini "MENING UYIM" maxsus himoya sug'urta qilish shartlari va talablari bilan tanitirish identifikasiya QR-kodi va sug'urtaning qilish hamda amal qilish muddati aniqlash uchun QR-kodni o'z ichiga olgan, AAT tomonidan avtomatik ravishda rasmiylashtirilgan hujjat. Sug'urta polisi elektron onlayn shaklida Sug'urta qildiruvchiga beriladi. Elektron shaklda berilgan Sug'urta polisi, agar u to'gri va to'lik to'ldirilgan hamda rasmiylashtirilgan bo'lsa, yozma shakldagi Sug'urta polisi tengalshiriladi va unga topshirilgan hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchiga kerak bo'lgan vaqtda, unga elektron shaklda topshirilgan Sug'urta polisini Sug'urta qildiruvchi tomonidan qogozda chop etishi mumkin.

Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi AAT orqali shakllantirilgan va rasmiylashtirilgan elektron shakldagi Sug'urta polisi, Sug'urta qildiruvchi tomonidan qabul qilingan va sug'urta shartnomasini qonunchilik doirasida tegishli tarzda imzolanganligini tasdiqlaydilar.

Sug'urta mukofoti - Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga ushbu Sugurta polisida belgilangan tartib va muddatlarda to'lashi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov.

Sug'urta hodisasi - mazkur Oferta va Sug'urta polisida nazarda tutilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan, sug'urta davri va hududida haqiqattan ro'y berishi oqibatida Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatini vujudga keltiruvchi hodisa.

Sug'urta tovoni - ushbu Sug'urta polisga muvofiq, sug'urta hodisasi ro'y bergan taqdirda Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) sug'urta puli doirasida to'lanadigan pul mablag'larining miqdori.

Sug'urta muddati (davri) - Sug'urta polisining amal qilish muddati (davri). Sug'urtalovchining sug'urta hodisalari bo'yicha majburiyatlari faqat Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddatida (davrida) amal qiladi.

Naf oluvchi - mazkur Oferta va Sug'urta polisga ko'ra uy-joyni sug'urtalanganidan manfaatdor tomon jismoniy shaxs, Sug'urta polisida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, Naf oluvchi sifatida mulk egasi tan olinadi.

Sug'urtalangan mulk - Sug'urta polisida ko'rsatilgan, va unga muvofiq sug'urta qilingan uy-joy.

Mulkning nobud bo'lishi - sug'urtalangan uy-joyning shikastlanishi oqibatida, uni tiklash harajatlari mulkning sug'urta qiymatidan oshishi tushuniladi.

Sug'urta hududi - Sug'urta polisida sug'urtalangan uy-joyning manzili.

Ariza-so'rovnoma – Sug'urta polisini rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan, AATda joylashtirilgan Sug'urta qildiruvchi, Naf oluvchi, to'grisidagi ma'lumotlar, sug'urtalanayotgan uy-joy to'grisidagi ma'lumotlarni kiritish yo'li bilan Sug'urta qildiruvchi tomodindan to'ldirilgan elektron onlayn ariza shakli (matn davomida – onlayn ariza). Onlayn ariza to'gri to'ldirilgan bo'lsa, sugurta qilish uchun yozma arizaga tenglashtiriladi. Onlayn ariza shakliga kiritilgan xujjatlar to'grisidagi ma'lumotlar AAT tomonidan avtomatik ravishda rasmiylashtirilgan Sug'urta polisiga kiritiladi.

2. SUG'URTA HODISASI

Mazkur Ofertaga muvofiq Sug'urtalovchi sugurtalangan uy-joyining shikastlanishidan ko'rilgan to'g'ridan-to'g'ri zararlarni quyida keltirilgan xavflar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa qoplaydi:

2.1. Tabiiy ofatlar, kuchli shamol (tezligi 18-28 m/s bo'lgan shamol), dovul (tezligi 29-38 m/s bo'lgan shamol), bo'ron (tezligi 39 m/s dan yuqori bo'lgan shamol) erning ko'chishi, erning cho'kishi, erning surilishi, daraxt yoki uning shoqlarining qulashi, sel, chaqmoq urishi, zilzila, do'l, jala, ko'p qor yog'ishi yoki muzlash natijasida zarar etishi.

2.2. Uchinchi shaxslarning qonunga xilof ravishda qasddan sodir etgan xatti-harakatlari, yong'in, portlash, isitish tizimlari, suv o'tkazgich va kanalizasiya tarmoqlariningbuzilishi, ichki santexnika tizimlarining yorilishi, uchuvchi jismlarning qulab tushishi natijasida zarar etishi.

2.3. Tomonlarning kelishuviga muvofiq sug'urtalash bir vaqtning o'zida 2.1 va 2.2-bandlarida keltirilgan barcha sug'urta xavflari bo'yicha yoki boshqa istalgan uyg'unlikda amalga oshirilishi mumkin.

3. UMUMIY ISTISNOLAR

3.1. Quyidagilar natijasida bevosita yoki bilvosita ro'y bergan hodisalar sug'urta hodisasi deb tan

olinmaydi:

a) yong'inga qarshi belgilangan xavfsizlik Sug'urta polisi, tez yonuvchan va portlovchi modda va buyumlarni saqlash sug'urta polpenni, yoki sug'urtalangan mulkka nisbatan belgilangan boshqa Sug'urta polisni buzish;

b) Sug'urta qildiruvchining (Naf oluvchi) sug'urta hodisasining vujudga kelishiga qaratilgan qasddan harakatlari va/yoki harakatsizligi, o'z fuqarolik burchi, bajarish yoki uchinchi shaxslarning xayoti, sog'lig'i, nomusi va qadriyatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan harakatlar bundan mustasno; bajarish yoki uchinchi shaxslarning xayoti, sog'lig'i, nomusi va qadriyatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan harakatlar bundan mustasno;

v) sug'urtaga qabul qilinayotgan uy-joy to'g'risida barcha muxim ahamiyatga ega ma'lumotlarni yashirish yoki Sug'urtalovchiga sug'urta ob'ekti to'g'risida bilgan xolda, yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish.

g) elektr tarmoqlaridagi qisqa tutashuv, elektr kuchlanishining o'zgarishi va boshqa nosozliklar oqibatida kelib chiqqan yong'in;

d) sug'urta muddati tugagandan sung ro'y bergan hodisalar.

3.2. Quyida keltirilgan hodisalar oqibatida ro'y bergan zarar ushbu Oferta va Sug'urta polisga muvofiq qoplanmaydi:

a) O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan sug'urtalangan uy-joy majburiy ravishda musodara qilinishi oqibatida mulkdan vaqtinchalik yoki doimiy mahrum bo'lish, davlat organlari qaroriga binoan sug'urtalangan uy-joyning buzilishi, olib qo'yilishi, milliylashtirilishi, rekvizisiya, musodara qilinishi, uni xatlanishi yoki yo'q qilinishi;

b) yadroviy portlash, radiasiya va radioaktiv zaharlanish ta'siri;

v) harbiy harakatlar, manyovrlar va boshqa harbiy tadbirlar, harbiy bostirib kirish, harbiy yurishlar yoki fuqarolik urushiga o'xshash harakatlar (urush e'lon qilingan yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar);

g) fuqarolik urushlari, har qanday turdagi Ommaviy xalq g'alayonlari, qo'zg'olonlar, ish tashlashlar va ruxsatsiz mitinglar;

D) bir shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilgan terroristik aktlar;

3.3. Shuningdek, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan nazarda tutilgan boshqa hollarda ham sug'urta tovonini to'lashdan ozod etiladi.

3.4. Sug'urtalovchi ushbu Oferta va Sug'urta polisda belgilanmagan va/yoki ifodalanmagan har qanday holatlarda xech qanday majburiyatni zimmasiga olmaydi.

3.5. Quyidagi hollarda Sug'urtalovchi sug'urta hodisasini tan olmasligi va sug'urta tovoni to'lashni rad etishi mumkin:

- Sug'urta qildiruvchi, sug'urta hodisasi ro'y berganidan so'ng, ushbu Ofertaning 6.1-bandida belgilangan tartib va muddatlarda Sug'urtalovchini sug'urta xodisasi ro'y berganligi to'g'risida xabardor qilmasa;

- Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) sug'urtalangan uy-joyga zarar etkazgan shaxs foydasiga etkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqidan voz kechsa, ushbu huquqni Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchining aybi bilan amalga oshirish imkoniyati yo'qolsa;

- Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) tomonidan sugurtalangan uy-joyga zarar etkazilgan javobgar shaxsdan zarar uchun tegishli tovon olingan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) vakolatli organlar (IIB, YOXB, avariya xizmatlari va hokazo)ga xabar bermagan bo'lsa, hamda sug'urta hodisasi ro'y berganligi fakti vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanmagan bo'lsa;

- ushbu Ofertada yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan nazarda tutilgan boshqa xollarda.

3.6. Sug'urtalovchi, ushbu Oferta va Sug'urta polisi bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirishidan avval va Sugurta polisining muddati tugagandan so'ng ro'y bergan hodisalarga nisbatan majburiyatlar olib bormaydi.

3.7. Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) yoki ularning vakillari tomonidan ro'y bergan hodisa to'g'risida yolg'on ma'lumot berilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi etkazalgan zararni qoplash bo'yicha hech qanday

majburiyatlarni olib bormaydi.

4. SUG'URTA PULI, SUG'URTA MUKOFOTI VA UNI TO'LASH TARTIBI

4.1. Sug'urta pulining hajmi hamda sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi tomonidan kelishilgan holda quidagi jadval asosida belgilanadi.

№	Sug'urta javobgarligi miqdori (so'mda)	Sug'urta mukofoti miqdori (so'mda)
1.	10 000 000,00 (o'n million) so'm	20 000,00 (yigirma ming) so'm
2.	20 000 000,00 (yigirma million) so'm	35 000,00 (uttiz besh ming) so'm
3.	50 000 000,00 (ellik million) so'm	50 000,00 (ellik ming) so'm
4.	100 000 000,00 (yuz million) so'm	90 000,00 (tuqson ming) sum
5.	Mijozning xoxishiga, ammo uy-joyning urtacha kiymatidan oshmagan mikdorida	Sugurta pulidan yillik 0,09% dan kam bumagan mikdorda.

4.2. Sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining bankdagi hisob rakamiga pul o'tkazish (AAT yoki tulov tashkilotlar tizimi yordamida Sug'urtalovchi yoki Sug'urtalovchining agentiga to'lash orqali amalga oshiriladi.

4.3. Sug'urta mukofoti ushbu ofertada belgilangan tartibda sug'urta muddati uchun bir yo'la to'lanishi lozim.

4.4. Sug'urta mukofotini to'lash va sug'urta tovoni bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

4.1. Sug'urta Polisi sug'urta mukofoti sug'urtalovchining bankdagi hisob raqamiga kelib tushgandan keyin 3 bank kuni ichida yozib beriladi.

5. SUG'URTA DA'VOLARINI KO'RIB CHIQISH VA HAL QILISH TARTIBI

5.1.Sug'urtalangan uy-joy bilan ushbu Oferta va Sug'urta polisida nazarda tutilgan xodisa ro'y bergan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi quyidagilarni amalga oshirishi shart:

a) Sug'urta qildiruvchiga zarar etkazilganligi haqida ma'lum bo'lishi bilan, darhol sug'urtalangan mulkni qutqarish va ehtimolli ziyonlarni kamaytirishga qaratilgan oqilona va ro'y bergan vaziyatda iloji bor choralarni ko'rishi;

b) kechiktirmasdan bu haqida tegishli vakolatli davlat organlariga xabar berish;

v) mumkin bo'lgan har qanday usul orqali (telefon, faks, telegraf va boshkalar) 3 (uch) bank kunidan kechiktirmasdan sug'urtalovchi yoki uning vakolatli vakiliga xabar berish, va 5 (besh) bank kunidan kechiktirmasdan zarar ro'y bergani to'g'risida yozma ariza taqdim etish;

g) shikastlangan uy-joyni sug'urtalovchi vakiliga ko'rikdan o'tkazish uchun taqdim etish, agar sug'urtalovchi vakili 10 (o'n) kunlik muddatda etib kelmagan bo'lsa, mulkning barcha shikastlangan qismlarini fotosuratga yoki videosuratga tushirish va shikastlangan mulkni ta'mirlash-tiklash yoki yo'q qilish ishlarini boshlashdan avval sug'urtalovchi vakiliga taqdim etish;

D) Sug'urtalovchining dastlabki yozma roziligisiz, ta'mirlash-tiklash yoki mulkni yo'q qilish ishlarini boshlamaslik.

Ko'rsatib o'tilgan talablarni bajarmaslik sug'urta hodisasini tan olmasligiga va sug'urta tovonini to'lashni rad etilishiga asos bo'ladi.

5.2.Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi talabni takdim etganda, Sug'urta qildiruvchi quyidagi xujjatlarni taqdim etishi shart:

- sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi ariza;
- shaxsni tasdiqlovchi guvohnoma;
- mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (kadastr hujjatlari, ijara shartnomasi va hokazo);
- baholash faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli konununiy talablarga javob beradigan baxolovchi bo'lgan ekspert yoki baxolash tashkilotining mulkka etkazilgan zarar miqdori aniqlash to'g'risidagi xulosasi;
- vakolatli organlar (YOXB, IIB, avariya xizmatlari va hokazo) tomonidan tuzilgan bayonnoma (qaror,

dalolatnoma va hokazo).

5.3.Sug'urtalovchi hodisa ro'y bergan holatlarni aniqlash maqsadida va unga bog'liq holda, qo'shimcha ma'lumot va hujjatlar (shikastlangan uy-joyning fotosuratlari, vakolatli organlarning ma'lumotnomalari va hokazo)ni talab etishga haqli. Etarlicha asos mavjud bo'lganda, Sug'urtalovchi 6.2-bandda ko'rsatilgan hujjatlarning to'liq ro'yxatini taqdim etishni talab etmasdan, qaror qabul qilishga haqli.

5.4. Ushbu hodisaga tegishli barcha holat, ma'lumot va hujatlarni o'rganib chiqqanidan so'ng, Sug'urtalovchi bo'lib o'tgan vokeani sug'urta hodisasi sifatida tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Da'voni ko'rib chiqish muddati, Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta tovonini to'lashni so'rab murojaat etganidan keyin o'n besh kunni tashkil etadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan 6.2-bandda ko'rsatilgan barcha zarur xujjat va ma'lumotlar taqdim etilmasa, sug'urtalovchi ular taqdim etilgunga qadar, murojaatni ko'rib chiqishni to'xtatib turishga yoki da'vo buyicha rad javobi berishga haqli.

5.5.Yuz bergan vokea sug'urta hodisasi deb tan olinmasa, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchini ular sug'urta tovonini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan qarori to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi.

5.6.Sug'urta hodisasi vujudga kelishiga sabab bo'lgan faktlar bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilgan yoki sud jarayoni boshlangan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta hodisasini tan olish masalasini hal etishni, tergov yoki sudda ish ko'rib chiqilishi tugamaguncha qoldirishga haqli.

5.7.Yuz bergan vokea Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi sifatida tan olingan taqdirda, to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovonining mikdori aniqlanadi va sug'urta xodisasi to'g'risidagi dalolatnomada ko'rsatiladi. Ushbu dalolatnoma Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi tomonidan imzolanadi.

5.8.Sugurta qildiruvchi, Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini to'lashga rad javobidan norozi bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, sudga shikoyat keltirishi mumkin.

6. SUG'URTA TOVONINING MIQDORI VA TO'LASH TARTIBI

6.1. Zararning miqdori sug'urta hodisasi ro'y bergan paytda sug'urtalangan mulkning xakikiy qiymatini inobatga olgan holda, Sugurta qildiruvchi tomonidan baholash faoliyatini amalga oshirish uchun konununiy talablarga javob beradigan baxolovchi bo'lgan ekspert yoki baxolash tashkilotining takdim etgan xulosasi asosida aniqlanadi.

6.2. Tomonlarning har biri zarar miqdorini aniqlash bo'yicha mustaqil ekspertiza o'tkazilishini talab qilishga haqli. Ekspertizani o'tkazishni talab qilgan tomon hisobidan o'tkaziladi.

6.3. Sug'urtalangan uy-joyga etkazilgan zarar quyidagicha aniqlanadi:

6.3.1. Sug'urtalangan uy-joyga etkazilgan zarar, mazkur shartnomaning 2.1-bandida ko'rsatilgan sugurta xodisasi tufayli zarar etkazilganda, sugurta tovonining mikdori sugurta pulidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

6.3.2. Sug'urtalangan uy-joyga etkazilgan zarar, mazkur shartnomaning 2.2-bandida ko'rsatilgan sugurta xodisasi tufayli zarar etkazilganda, sugurta tovonining miqdori quyidagi xolat asosida tulab beriladi:

a) uy-joyning bino-inshoatiga zarar etsa, sug'urta tovonining mikdori sugurta pulining 65 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas;

b) uy-joyning bezak va muxandislik uskunalariga zarar etsa, sugurta tovonining mikdori sugurta pulining 35 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

6.3. Barcha xolatlarda tulangan sugurta tovoni, barcha tulangan sug'urta tovoni kushilgan mikdori urnatilgan sug'urta pulidan oshmaganmaydi.

6.4. Sug'urta tovoni sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni davomida, pul mablag'larini naqdsiz ko'rinishda, sugurta tovonini oluvchining bank hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

6.5. Sug'urtalovchining bank hisob raqamidan pul mablag'lari o'tkazilgan kun sug'urta tovonining to'lov kuni hisoblanadi.

6.6. Sug'urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan sug'urta tovonining har bir to'lovi, agar sug'urta pulini tiklash uchun sug'urta mukofoti to'lanmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi majburiyatlarini (sug'urta pulini) amalga oshirilgan to'lov summasiga kamaytiradi.

7. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

7.1.1. sug'urta Polisi amal qilishi muddati ichida Sug'urtalovchidan sug'urta masalalari bo'yicha maslahat olish;

7.1.2. Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olish;

7.1.3. Ushbu Oferta va Sug'urta polisi doirasida kelishmovchiliklar ro'y berganda, o'z hisobidan mustaqil ekspertni yoki mutaxassisni jalb qilish.

7.2. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

7.2.1. Sug'urta mukofotini ushbu Oferta va Sug'urta polisda belgilangan tartib va muddatlarda to'lash;

7.2.2. Ushbu Ofertaning 6.1-bandiga muvofiq, Sug'urtalovchini ro'y bergan hodisa to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish;

7.2.3. Sug'urtalangan uy-joydan faqat maqsadli foydalanish, gaz, elektr uskuna jixozlaridan foydalanish va urnatilgan tarbiga xamda ushbu oferta va Sug'urta polisiga rioya qilish;

7.2.4. Sug'urtalangan uy-joydan foydalanish huquqiga ega shaxslar e'tiboriga ushbu Oferta va Sug'urta polisning shartlarini etkazish;

7.2.5. Shikastlangan uy-joy va uning qoldiqlarini Sug'urtalovchiga taqdim etish va Sug'urtalovchi bilan dastlab kelishmasdan, ta'mirlash-tiklash yoki yo'q qilish ishlarini boshlamaslik;

7.2.6. To'langan sug'urta tovoni doirasida sug'urta xodisasining vujudga kelishida aybdor shaxsga talab qilish huquqini Sug'urtalovchiga o'tkazish.

7.3. Sug'urtalovchining huquqlari:

7.3.1. Sug'urta xodisasi ro'y bergan taqdirda, Sug'urta qildiruvchidan sug'urta xodisasini vujudga keltirgan xolatlarni tekshirish uchun zarur ma'lumot va xujjatlarni talab etish;

7.3.2. Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta va Sug'urta polisda belgilangan talabni, shartlarni va majburiyatlarini bajarmasa, etarli darajada bajarmasa yoki bajarishdan bosh tortsa, sug'urta tovonini to'lashni rad etish;

7.3.3. Sug'urta qildiruvchining roziligisiz, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya qilgan holda, sug'urta hodisasi bilan bog'liq ma'lumotlarni huqukni muhofaza qiluvchi organlardan, xamda sug'urta xodisasi holatlari to'g'risida ma'lumotga ega boshqa muassasa va tashkilotlardan takdim etilishini so'rash;

7.3.4. Sug'urta qildiruvchining manfaatlarini himoya qilish va uning nomidan sud va boshqa vakolatli organlarda ish ko'rish;

7.3.5. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchidan yozma so'rovnoma olganidan boshlab 10 kun ichida sug'urta hodisasiga bog'liq ma'lumotlar va/yoki hujjatlarni taqdim etmasa, sug'urta hodisasini ko'rib chiqishni to'xtatib, sug'urta tovonini to'lashni rad etishga xaqli.

7.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

7.4.1. Ushbu Oferta belgilangan muddat va shartlari asosida Sug'urta Polisini rasmiylashitirish berish berish;

7.4.2. Barcha zarur hujjatlar taqdim etilganidan xamda ro'y bergan vokea sug'urta xodisasi sifatida tan olinganidan so'ng, ushbu Ofertada va sug'urta polisida belgilangan miqdor va muddatda Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovoni to'lovini amalga oshirish;

7.4.3. Sug'urta polisining amal qilishi muddatida Sug'urta qildiruvchi sug'urta masalalari bo'yicha maslaxat berish;

7.4.4. Ushbu sug'urta polisining amal qilishi muddatida Sug'urta qildiruvchidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Sug'urtalovchi ma'lumotni davlat organlariga taqdim etishga majbur bo'lgan hollar bundan mustasno.

8. SUBROGASIYA

8.4. Sug'urta qildiruvchining zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi, sug'urta tovoni to'langandan keyin va to'langan tovon miqdorda sug'urtalovchiga o'tadi.

8.5. Sug'urta qildiruvchi sug'urta tovonini olganda, Sug'urtalovchiga barcha zarur hujjatlarni berishi va sug'urta hodisasi ro'y berishiga javobgar shaxsga nisbatan Sug'urtalovchi qayta talab qilish (regress) huquqini amalga oshirishi uchun zarur barcha choralarni ko'rishi shart.

8.6. Agar Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug'urta qildiruvchining aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va sug'urta tovonining ortiqcha to'langan tovon summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

9.4. Tomonlar ushbu Oferta va Sug'urta polisi bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki tegishli ravishda bajarmaslik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

9.5. Agar tomonlar ushbu Oferta va Sug'urta polisi bo'yicha majburiyatlarini engib bo'lmas holatlar (fors-major) oqibatida bajarolmasalar, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar. Engib bo'lmas xolatlar ta'siri ostida qolgan tomon ikkinchi tomonni aytib o'tilgan holatlar ro'y berganligi va ularning extimolli davomiyligi to'g'risida darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart.

9.6. Agar Sug'urta polisi berilganidan so'ng, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi vujudga kelishi ehtimolini aniqlash uchun muxim holatlar to'g'risida bila turib, yolg'on va noanik ma'lumotlar takdim etilganligi aniqlansa, Sug'urtalovchi Sug'urta polisini haqiqiy emas deb tan olishni va Sug'urta qildiruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan nazarda tutilgan oqibatlarni qo'llashni talab etishga haqli.

10. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.4. Ushbu Oferta va Sug'urta polisi bo'yicha paydo bo'ladigan nizolar Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Nizoli masalalar bo'yicha kelishuvga erishish mumkin bo'lmagan taqdirda ularni hal etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar joylashga manzil bo'yicha fuqorolik sudiga ko'rib chiqish uchun beriladi.

10.5. Kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmaganda, Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar javobgar joylashga manzil bo'yicha fuqorolik sudida hal etiladi.

10.6. Ushbu Oferta va Sug'urta polisda aks ettirilmagan boshqa shartlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

11. KORRUPSIYAGA QARSHI CHORA-TADBIRLAR

11.1. Ushbu Oferta va Sug'urta polisi bo'yicha tomonlar korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va o'z huquqlari yoki majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi qonun normalarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar, shu jumladan (cheklanmagan holda) har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat organlariga noqonuniy to'lovlarni, shu jumladan (cheklanmagan holda) naqd yoki boshqa shaklda pora berishni taklif qilish, va'da qilish va amalga oshirish. Tomonlardan biri ushbu Oferta va Sug'urta polisining ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama tartibda suddan tashqari ushbu Oferta va Sug'urta polisi bajarishni rad etishga haqli. Tomonlar mazkur bandga muvofiq ushbu Sug'urta polisi bekor qilingan taqdirda bir-birlariga etkazilgan zararni qoplamaydilar.

11.2. Tomonlar quyidagilarni ifodalaydi va kafolatlaydi:

- tomonlarning har biri, shuningdek, ular bilan bog'liq shaxslar o'z faoliyatini vijdonan va qonuniy ravishda, yuksak axloqiy me'yorlarga rioya qilgan holda olib borishlari shart.

- tomonlar, shuningdek, ular bilan bog'liq vakolatli shaxslar, vakillar korrupsiyaga, soliqqa oid firibgarlikka va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga har qanday shaklda (bevosita yoki bilvosita) hissa qo'shishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat bilan shug'ullanmasligi kerak.

12. SHAXGA DOIR MA'LUMOTLAR

12.1. Sug'urta qildiruvchi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi O'zRQ-547-son Qonuniga muvofiq, hujjatlarda va boshqa ma'lumotlarda mavjud bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlardan (shu jumladan telefon aloqasi orqali uzatiladigan ma'lumotlardan, agar Sug'urtalovchiga telefon suhbatlarini yozib olish va saqlash uchun tegishli imkoniyat taqdim etilgan bo'lsa, bu O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan darajada) qayta ishlash, saqlashga tuzilgan sug'urta shartnomasining bajarilishini ta'minlash maqsadida Sug'urtalovchi tomonidan foydalanishiga rozilik beradi.

12.2. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi va ko'rsatilayotgan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlashi shart bo'lgan me'yoriy hujjatlarda belgilangan butun muddat davomida uning dasturiy va texnik vositalaridan foydalangan holda Sug'urtalovchining ma'lumotlarini qayta ishlaydi.

12.3. Sug'urtalovchi ushbu Ofertani buyicha uz majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash uchun shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, tarqatish (shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni qog'oz va elektron tashuvchilarda yuborish, shu jumladan transchegaraviy elektron yuborish) blok qilish, yo'q qilish orqali amalga oshiriladi. Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun Sug'urtalovchi ushbu Oferta buyicha sug'urta shartnomasini tuzish va bajarish munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy oshkor etilishini (maxfiyligi) saqlagan holda uchinchi shaxslarga topshirishga haqli.

12.4. Sug'urtalovchi ushbu Ofertada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqa maqsadlarda shaxsga doir ma'lumotlarning saqlanishi va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini oladi.

SUG'URTALOVCHINING REKVIZITLARI:

To'liq nomi:	**"INSON" Aktsiyadorlik Jamiyati Sug'urta tashkiloti**
Pochta manzili:	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100011, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 31-uy
Internet sahifasi:	www.insuranceon.uz
Elektron pochta manzili:	info@insuranceon.uz